

Abdullayeva Hamidaxon Rustamjon Qizi¹

¹FarDU geografiya kafedrası tadqiqotchisi

Абдуллаева Хамидахон

Исследователь кафедры географии ФГУ

Abdullaeva Khamidakhan

Researcher at the Department of Geography at FSU

**AGROTURIZMINI HUDUDIY TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS
JHATLARI VA MODELLARI
ОСОБЕННОСТИ И МОДЕЛИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ
АГРОТУРИЗМА
FEATURES AND MODELS OF REGIONAL ORGANIZATION OF AGRO-
TOURISM**

Annotatsiya. Maqolada turizm hududiy tashkil etish masallari, birinchi navbatda qishloq turizmini rivojlantirish bo‘yicha halqaro tajriba ko‘rib chiqilgan. Qishloq xo‘jaligi turizmining o‘ziga xos xususiyatlari, muammolari va uni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilingan. Ushbu sohasini rivojlantirish bo‘yicha eng muvaffaqiyatli modellari ajratib olindi va bu bo‘yicha eng istiqbolli yo‘nalishlari belgilab olingan.

Аннотация. Абстрактный. В статье рассмотрены примеры территориальной организации туризма, прежде всего, международный опыт развития сельского туризма. Анализируются особенности агротуризма, проблемы и пути его развития. Выявлены наиболее успешные модели развития этого месторождения и определены наиболее перспективные направления.

Abstract. The article examines examples of territorial organization of tourism, primarily international experience in rural tourism development. Features of agrotourism, problems and ways of its development are analyzed. The most successful models of development of this field are identified and the most promising directions are defined.

Kalit so'zlar: agroturizm, qishloq turizmi, qishloq xo'jaligi turizmi, turizm sanoati.

Ключевые слова: агротуризм, сельский туризм, сельскохозяйственный туризм, туристская отрасль.

Keywords: agrotourism, rural tourism, agricultural tourism, tourism industry.

Turizmni hududiy tashkil etish — bu turizm faoliyatini ma'lum bir geografik hududda rivojlantirish, unga mos infratuzilma, xizmatlar, va resurslarni ta'minlash jarayonidir. Bu jarayon turizmni aniq hududda samarali va barqaror rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u turistik potensialni maksimal darajada ishlatishga va turizm sohasidan iqtisodiy, madaniy, ekologik va ijtimoiy foyda olishga imkon yaratadi.

Turizmni hududiy tashkil etishning asosiy maqsadi — turizmni rivojlantirish orqali hududning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, mahalliy resurslardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishdir. Buning uchun hududning turistik imkoniyatlarini, resurslarini va infratuzilmasini hisobga olib, aniq strategiyalar ishlab chiqiladi. Turizmni hududiy tashkil etish borasida olimlar

turizm va geografiya, iqtisodiyot, ekologiya va madaniyat sohalaridagi tadqiqotlarga asoslanib, hududlar bo'yicha turizmni samarali rivojlantirishga oid ko'plab tadqiqotlar olib borgan. Misol uchun: Richard W. Butler (Kanada) turizm geografiyasi va turizmni hududiy rivojlantirish sohasida keng tanilgan olimdir. Uning "Tourism Area Life Cycle" (TALC) nazariyasi turizmni hududda rivojlantirishning evolyutsion jarayonlarini tushuntiradi. Butlarning ishlari turizmni hududiy tashkil etishning asosiy prinsiplarini belgilashda muhim rol o'ynadi. John Weaver (Avstraliya) ekologik turizm va turizmni hududiy tashkil etishda ekologik barqarorlik masalalariga katta e'tibor qaratgan. U turizmni rivojlantirishda atrof-muhitni himoya qilish, mahalliy resurslarni boshqarish va barqaror turizmni amalga oshirishga oid ko'plab tadqiqotlar olib borgan.

David Harrison (Buyuk Britaniya) turizmni hududiy rivojlantirishda iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlarni o'rganishga e'tibor qaratgan. U turizmning hududlar bo'yicha tengsizlikni qanday keltirib chiqarishi mumkinligini va hududiy resurslarni qanday samarali boshqarish kerakligini o'rganadi. U shuningdek, turizmni hududiy rivojlantirishda mahalliy aholi va madaniyatning ahamiyatini ta'kidlagan. Turizmni hududiy tashkil etish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar keng qamrovli bo'lib, geografiya, iqtisodiyot, ekologiya, va madaniyat kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Ushbu olimlar turizmning hududiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi turli omillarni tahlil qilib, ularning samarali boshqarilishi va rivojlantirilishini ta'minlash uchun muhim nazariyalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan.

Agroturizmni hududiy tashkil etishning o'ziga xos jihatlari — bu turizm va qishloq xo'jaligining o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda, agroturizmni ma'lum bir hududda muvaffaqiyatli rivojlantirishga qaratilgan maxsus yondashuvlar va amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Agroturizm, o'z navbatida, qishloq joylarda turizmni rivojlantirishga imkon beradigan faoliyat bo'lib, tabiat, madaniyat, va qishloq xo'jaligi resurslarini birlashtiradi.

Agroturizm faoliyatining turli mintaqa va mamlakatlardagi rivojlanish xususiyatlariga bog'liq holda jahonda agroturizmning turlicha rivojlanish

modellari shakillangan (1.2-jadval). Masalan, A.A.Bakanova agroturizm faoliyatini rivojlantirish mumkin bo'lgan to'rtta asosiy modelni aniqladi.

Angliya-Amerika modeli ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda urushdan keyingi davrda, milliy iqtisodiyot og'ir ahvolda bo'lgan va inqirozdan chiqish uchun zudlik bilan choralar ko'rishni talab qilgan paytda paydo bo'ldi. Bu davrda yo'llarning faol qurilishi boshlandi, avtoturizm faollashdi. Aynan avtoturistlar ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda agroturizm xizmatlarining asosiy iste'molchilariga aylangan. Bu fakt ushbu modelning quyidagi xarakterli xususiyatlariga olib keldi:

- ichki turizmga e'tibor qaratish;
- asosiy xizmatlar to'plamini taqdim etish, chunki qo'shimcha xizmatlar odatda talab qilinmaydi;
- milliy o'ziga xosliklarga e'tibor bermaslik (milliy o'ziga xosliklar juda aniq ifodalangan Angliya bundan mustasno).

Qishloq turizmining **Osiyo modeli** Angliya-Amerika modeliga mutlaqo qarama-qarshidir, chunki u milliy lazzat, ko'plab qo'shimcha xizmatlar va qishloqda joylashgan maxsus qurilgan "VIP qishloqlar" yoki qimmatbaho milliy mehmonxonalarda agroturistlarni joylashtirishni o'z ichiga oladi. . Agroturizmni rivojlantirishning Osiyo modeli faqat yuqori mehmondo'stlik madaniyati rivojlangan, turizm sanoati ancha yuqori darajada bo'lgan va yildan-yilga doimiy ravishda chet ellik sayyohlar oqimi kuzatilayotgan mamlakatlarda qo'llanilishi mumkin.

G'arbiy Evropa modeli 1970-yillarda Fransiya va Italiyada qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro bozorda raqobatbardoshligini yo'qotish bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi inqirozi fonida paydo bo'ldi. Bunday holda, agroturizm Yevropa Ittifoqi tomonidan qishloq xo'jaligi sektorining tanazzulga uchrashi va aholining kamayishiga yo'l qo'ymaslik uchun qabul qilingan choraga aylandi. G'arbiy Yevropa modelining rivojlanishi va faoliyatining muvaffaqiyat omillari quyidagilardir:

- agroturistik fermer xo'jaliklarini tizimli davlat tomonidan qo'llab-

quvvatlash;

- umummilliy va mintaqaviy agroturizm mahsulotlarini ilgari surish uchun huquqiy, reklama va axborot ta'minoti;

- agroturizm sub'ektlari uyushmalarini yaratish, barcha agroturizm sektori bo'yicha ma'lumotlar bazalariga ega portallarni qo'llab-quvvatlash;

- moliyaviy qo'llab-quvvatlash – qishloq xo'jaligi turizmi korxonalarini imtiyozli kreditlash yoki subsidiyalash tizimi;

- yetarlicha yuqori darajadagi qulaylik va uy-joy fondining yaxshi holati (qoida tariqasida, bu avtonom ta'minot tizimiga ega xususiy uylar).

Qishloq turizmining **Sharqiy Yevropa modeli** Sharqiy Yevropa mamlakatlari – Bolgariya, Polsha, Chexiya, shuningdek, Gretsiya va Kiprda keng tarqalgan. Ushbu modelning shakllanishi qishloq sektorining yomon rivojlangan uy-joy-kommunal fondi sharoitida sodir bo'ldi, shuning uchun qishloqlarni rekonstruksiya qilish dasturlarini ishlab chiqishni talab qildi, bu model G'arbiy Yevropa modelidan farqli o'laroq, ko'proq qimmat. Bundan tashqari hozirgi kunda agroturizm sohasida ilg'or tajribalarga ega bo'lgan quyidagi davlatlarda keltirilgan mavjud agroturizm modellari mavjud.

1. Britaniya modeli. Ushbu modelda agroturizm fermerlarning uyida yoki alohida binolarda yashashga ixtisoslashtirilgan va bilimlarni kengaytirish hamda otda sayr qilish va golf o'yinlarida ishtirok etishga asoslanadi. Britaniya modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish nazarda tutilmaydi.

2. Fransuz modeli. Ushbu modelda agroturizm alohida kottejlar yoki yozgi uylarda yashashga asoslanadi va ekoturizm, suv turizmi hamda baliq ovlashga asoslanadi. Fransuz modelida ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish nazarda tutilmaydi.

3. Italyan modeli. Ushbu modelda agroturizm alohida kempinglar (qishloq mehmonxonalari) yoki fermerlarning uyida yashashga asoslanadi va ekoturizm, bilim olish, tog'-chang'i, plyaj hamda baliq ovlashga asoslanadi. Italyan

modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish emas, balki yig'ib olish jarayonida bevosita ishtirok etish nazarda tutiladi.

4. Nemis modeli. Ushbu modelda agroturizm fermerlarning uyida birgalikda yashashga hamda pikniklar qilish, baliq ovlashga asoslanadi. Nemis modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish faqatgina xo'jalik ishlariga yordamlashishni nazarda tutadi.

5. Avstriya modeli. Ushbu modelda agroturizm fermerlarning uyida dehqonlar ovqati asosida yashashga asoslanadi va baliq ovlash hamda otda yurish ko'zda tutiladi. Avstriya modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish faqatgina tomorqada ishlashni nazarda tutadi.

6. Kipr modeli. Ushbu modelda agroturizm milliy qishloqlarda mahalliy ovqatlarini iste'mol qilish va piyoda, otda, velosipedda yurishga hamda etnik odatlarga asoslanadi. Kipr modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish faqatgina hosilni yig'ib olish jarayonidagi ishtirokni nazarda tutadi.

7. Finlandiya modeli. Ushbu modelda agroturizm alohida kottejlarda yashashga va suv turizmi, baliq ovini nazarda tutadi. Finlandiya modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish nazarda tutilmaydi.

8. Bolgariya modeli. Ushbu modelda agroturizm fermerlarning uyida birgalikda yashashga hamda madaniy, bilim olish, ekologik hamda sport turizmiga asoslanadi. Bolgariya modelida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratish jarayonida bevosita ishtirok etish ixtiyoriy (1-jadval).

1-jadval

Agroturizm modellari va turlari

Agroturizm modellari turlari	Yashash	Ovqatlanish	Dam olish va turizm turlari	Qishloq xo'jaligi faoliyatidagi ishtirok
Britaniya modeli	Fermerlarning uyida	Faqat nonushta	Bilim olish va ekologik turizm	Ko'zda tutilmagan
	Alohida binolarda	O'z-o'ziga xizmat	Otda yurish, golf o'yini	Ko'zda tutilmagan

Fransuz modeli	Alohida kottej	O‘z-o‘ziga xizmat	Ekologik turizm	Ko‘zda tutilmagan
	Yozgi uylar	O‘z-o‘ziga xizmat	Suv turizmi, baliq ovi	Ko‘zda tutilmagan
Italyan modeli	Kempinglar, qishloq mehmonxonalari	To‘liq ovqatlanish	Ekologik, bilim olish, tog‘- chang‘i turizmi	Ko‘zda tutilmagan
	Fermerlarning uyida yoki alohida binolarda	Gastronomik turlar dasturi doirasida	Ekskursiyalar, baliq ovi, plyaj turizmi	Hosilni yig‘ib olish
Nemis modeli	Fermerlarning uyida	Uy egalari bilan birgalikda	Pikniklar, baliq ovi	Xo‘jalik ishlarida yordam berish
Avstriya modeli	Fermerlarning uyida	Dehqonlar ovqati	Baliq ovi, otda yurish	Tomorqada ishlash
Kipr modeli	Milliy qishloq	Qishloq ovqati yoki tavernalar	Piyoda, otda, velosipedda yurish va etnik odatlar	Hosilni yig‘ib olish
Finlandiya modeli	Alohida kottej	O‘z-o‘ziga xizmat	Suv turizmi, baliq ovi	Ko‘zda tutilmagan
Bolgariya modeli	Uy egalari bilan bir uyda	Uy egalari bilan birgalikda	Madaniy, bilim olish, ekologik hamda sport turizmi	Ixtiyoriylik

Ko‘pchilik Yevropaliklarning fikricha, agroturizm faoliyati dengiz va tog‘- chang‘i kurortlari kabi daromadli faoliyat hisoblanmasa-da, barqaror va ishonchli daromad keltiruvchi faoliyat hisoblanadi. Agroturizm bugungi kunda Yevropada turistik faoliyatning eng mashhur turlaridan biri hisoblanib, turistik faoliyatdan olinayotgan umumiy daromadning 20 %igacha bo‘lgan qismini tashkil etmoqda. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan xorijiy mamlakatlarning agroturizm faoliyatidagi tajribalaridan hamda jahon mam-lakatlarida qo‘llanilayotgan agroturizmni rivojlantirish modellaridan mamlakatimizda turizmning ushbu faoliyat turini rivojlantirishda mahalliy shart-sharoitlar hamda tabiiy-iqlim sharoitlarni hisobga olgan holda foydalanish mumkin.

Biroq turli mamlakatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutuvchi modellar va tajribalarni “ko‘chirish” orqali faoliyatni yo‘lga qo‘yish uning samaradorligini ta‘minlay olmaydi. Mamlakatimizda agroturizmning ustuvor yo‘nalishlari sifatida milliy urf-odatlar hamda hududlarning o‘ziga xos jihatlarini o‘z ichiga oluvchi milliy jihatlarini rivojlantirish orqali nafaqat ichki, balki

agroturizmga yoʻnaltirilgan kirish turizmini ham rivojlantirish imkoniyatini kengaytiradi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. 2019 — 2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611-сон [Фармони](#)га 1-илова).
2. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. –Т.: ЎзбМЭ, 2006.
3. Маҳкамов Э. “Фарғона водийси табиатидан рекреация ва туризм мақсадларида фойдаланишнинг географик асослари” // магистр. дисс. –Т.: 2013
4. Melinda C. Turism rural, agroturism, turism ecologic rural tourism, agrotourism, ecological tourism – University of Craiova vol. 7 (new series) – series: Geography, 2004.
5. Кулагина Е.В. Сельские гостевые дома как инфраструктурная составляющая агротуризма / Е.В. Кулагина, О.В. Лукина // Современная экономика: актуальные вопросы, достижения и инновации: Сборник статей X Международной научно-практической конференции. – Пенза, 2017. – С. 169–172.
6. Плотников А.В. Особенности развития агротуризма в Российской Федерации // Экономика и предпринимательство. – 2018. – № 3 (92). С. 1047-1051.
7. Ayazlar G., Ayazlar R.A. Rural Tourism: A Conceptual Approach / Tourism, Environment and Sustainability. Sofia. T. Kliment Ohridski University Press. 2015. Pp. 167–185. 18.
8. Lane B. Rural Tourism: An Overview, in The SAGE Handbook of Tourism Studies, (Ed. Tazim Jamal and Mike Robinson), SAGE Publications, 2009. Pp. 354– 370.